



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No6**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINING MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr.  
2026-yil, iyun.*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeveva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanov Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

#### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

#### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

#### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

|                                                                                                                                |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| TURIZMDA INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASH VA XORIJIY INVESTITSİYALARNI<br>JALB ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI ..... | 21 |
| <b>Ergashkulov Muyinjon Umedovich</b>                                                                                          |    |
| “AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY<br>FAOLIYATI TAHLILI .....                          | 28 |
| <b>Misirov Asliddin Mamasobirovich</b>                                                                                         |    |
| <b>Eshdavatov T.A.</b>                                                                                                         |    |



# “AVTO PORLOQ KELAJAK 2020” XKNING TASHKILIY-IQTISODIY TAVSIFI VA MOLIYAVIY FAOLIYATI TAHLILI

**Misirov Asliddin Mamasobirovich**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
Buxgalteriya hisobi kafedrası o'qituvchisi  
E-mail: misirovasliddin@gmail.com.  
<https://orcid.org/0009-0008-2742-5398>

**Eshdavatov T.A.**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
BXS – 521 guruh talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada korxonalarning samarali faoliyat yuritishi ularning tashkiliy tuzilmasi, iqtisodiy salohiyati va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liqligiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, “Avto porloq kelajak 2020” xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy faoliyatini o'rganish va moliyaviy holatini tahlil qilish korxonaning mavjud imkoniyatlari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishi misollar asosida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi, audit tizimi, xalqaro moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotlar, xalqaro standart, korxona, moliyaviy barqarorlik, xususiy kapital.

**Аннотация.** В данной статье особое внимание уделено тому, что эффективная деятельность предприятий непосредственно зависит от их организационной структуры, экономического потенциала и финансовой устойчивости. С этой точки зрения на примере частного предприятия «Avto porloq kelajak 2020» рассмотрены вопросы изучения его организационно-экономической деятельности и анализа финансового состояния, что имеет важное значение для определения существующих возможностей предприятия и перспективных направлений его развития.

**Ключевые слова:** бухгалтерский учет, система аудита, международная финансовая отчетность, финансовые отчеты, международный стандарт, предприятие, финансовая устойчивость, собственный капитал.

**Abstract.** This article emphasizes that the effective operation of enterprises directly depends on their organizational structure, economic potential, and financial stability. From this perspective, the organizational and economic activities as well as the financial condition of the private enterprise “Avto porloq kelajak 2020” are analyzed. The study highlights, through practical examples, the importance of evaluating the enterprise's existing capabilities and identifying its future development directions.

**Keywords:** accounting, audit system, international financial reporting, financial statements, international standard, enterprise, financial stability, equity capital.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida buxgalteriya hisobi va audit tizimini xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) moslashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtisodiyotda shaffoflikni oshirish, moliyaviy nazorat tizimini takomillashtirish va investitsiyaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan qaror va farmonlari ushbu sohani rivojlantirishga muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, “moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o'tkazilishi” va “korxonalarda ochiqlikni ta'minlash” bo'yicha qabul qilingan hujjatlar bu yo'nalishdagi islohotlarni yanada jadallashtirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, iqtisodiyotda shaffoflikni ta'minlash va ishonchli moliyaviy axborot tizimini shakllantirish iqtisodiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Ushbu yondashuv moliyaviy



hisobotlarning nafaqat hisob-kitob vositasi, balki iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun asosiy axborot manbai ekanligini ko'rsatadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotlarni tuzish va tahlil qilish hamda ularning auditini tashkil etish masalalari xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xalqaro miqyosda Robert K. Elliott, Thomas R. Dyckman va Jerry J. Weygandt kabi olimlar moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va audit jarayonlarining nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. O'zbekistonda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, strategik dasturlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarining samarali faoliyat yuritishi ularning tashkiliy tuzilmasi, iqtisodiy salohiyati va moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, "Avto porloq kelajak 2020" xususiy korxonasining tashkiliy-iqtisodiy faoliyatini o'rganish va moliyaviy holatini tahlil qilish korxonaning mavjud imkoniyatlari hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Avto porloq kelajak 2020" XK O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida tashkil etilgan bo'lib, o'z faoliyatini mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt sifatida amalga oshiradi. Korxona faoliyatining asosiy maqsadi iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish, yuqori sifatli xizmatlar ko'rsatish hamda foyda olish orqali o'z faoliyatini rivojlantirishdan iborat.

Korxona o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Soliq kodeksi, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga amal qiladi. Korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli xususiy korxona bo'lib, u mustaqil balansga, bank hisob raqamlariga, muhr va shtamlarga ega.

Korxonaning tashkiliy tuzilmasi uning faoliyat yo'nalishlari va boshqaruv ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantirilgan. Boshqaruv tizimida rahbar, buxgalteriya bo'limi, moliya bo'limi, ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'limlari hamda yordamchi tarkibiy tuzilmalar faoliyat yuritadi. Mazkur tuzilma korxona faoliyatini samarali tashkil etish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

Korxonaning iqtisodiy tavsifi uning ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish hajmi, daromadlari, xarajatlari, foyda ko'rsatkichlari va resurslardan foydalanish samaradorligi orqali baholanadi. Iqtisodiy faoliyatning asosiy maqsadi foyda olish va korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Shu sababli korxona muntazam ravishda o'z moliyaviy natijalarini tahlil qilib boradi.

Moliyaviy faoliyat tahlili korxonaning moliyaviy holatini baholashning muhim vositasi hisoblanadi. Ushbu tahlil jarayonida korxonaning aktivlari, majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari va xarajatlari o'rganiladi. Moliyaviy tahlil natijalari asosida korxonaning to'lov qobiliyati, moliyaviy barqarorligi va investitsiyaviy jozibadorligi aniqlanadi.

Korxona moliyaviy faoliyatini tahlil qilishda avvalo uning aktivlari tarkibi va dinamikasi o'rganiladi. Aktivlar korxona ixtiyoridagi iqtisodiy resurslarni ifodalaydi va ular uzoq muddatli hamda joriy aktivlardan tashkil topadi. Aktivlar tarkibining o'zgarishi korxonaning ishlab chiqarish salohiyati va moliyaviy imkoniyatlaridagi o'zgarishlarni aks ettiradi.

Majburiyatlar tahlili esa korxonaning tashqi manbalardan jalb qilingan mablag'lari hajmi va tarkibini baholash imkonini beradi. Majburiyatlarning haddan tashqari ortib ketishi moliyaviy xavflarning oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois majburiyatlar tarkibi va ulardan foydalanish samaradorligini muntazam tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlashda xususiy kapital ko'rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy kapital korxonaning o'z mablag'lari hisobidan shakllangan moliyaviy resurslarini tavsiflaydi. Xususiy kapital ulushining yuqori bo'lishi korxonaning moliyaviy mustaqilligini oshiradi.

Moliyaviy faoliyat tahlilida likvidlik ko'rsatkichlari ham muhim o'rin tutadi. Joriy likvidlik koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Kjl = \text{Joriy aktivlar} / \text{Joriy majburiyatlar}$$

Mazkur ko'rsatkich korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash imkoniyatini tavsiflaydi. Koeffitsiyentning me'yoriy darajada bo'lishi korxonaning to'lov qobiliyati yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Korxonaning moliyaviy mustaqilligi quyidagi formula asosida baholanadi:



$Kmm = \text{Xususiy kapital} / \text{Jami aktivlar}$

Ushbu ko'rsatkich korxona aktivlarining qanchalik darajada o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, korxonaning rentabellik darajasini aniqlash uchun aktivlar rentabelligi ko'rsatkichi hisoblanadi:

$ROA = \text{Sof foyda} / \text{Jami aktivlar} \times 100\%$

Mazkur ko'rsatkich korxona aktivlaridan foydalanish samaradorligini tavsiflaydi.

"Avto porloq kelajak 2020" XK faoliyatini tahlil qilish natijalari korxonaning moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Korxona faoliyatini muntazam ravishda moliyaviy tahlil qilish boshqaruv qarorlarining sifatini oshiradi va korxonaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval.

"Avto porloq kelajak 2020" XKning 2025-yil 31-dekabr holatiga moliyaviy holat to'g'risidagi hisoboti (ming so'mda)

| Ko'rsatkichlar                               |                              |
|----------------------------------------------|------------------------------|
| <b>AKTIVLAR</b>                              | <b>Summa</b>                 |
| Asosiy vositalar                             | 1 850 000                    |
| Nomoddiy aktivlar                            | 35 000                       |
| Uzoq muddatli aktivlar                       | 120 000                      |
| Jami uzoq muddatli aktivlar                  | 2 005 000                    |
| <b>Joriy aktivlar</b>                        |                              |
| Tovar-moddiy zaxiralar (ehtiyot qismlar)     | 420 000                      |
| Debitorlik qarzlari                          | 315 000                      |
| Pul mablag'lari                              | 560 000                      |
| Boshqa joriy aktivlar                        | 100 000                      |
| <b>Jami joriy aktivlar</b>                   | <b>1 395 000</b>             |
| <b>JAMI AKTIVLAR</b>                         | <b>3 400 000</b>             |
| <b>XUSUSIY KAPITAL VA MAJBURIYATLAR</b>      | <b>Summa</b>                 |
| <b>I. Xususiy kapital</b>                    |                              |
| Ustav kapitali                               | 1 200 000                    |
| Rezerv kapitali                              | 180 000                      |
| Taqsimlanmagan foyda                         | 820 000                      |
| <b>Jami xususiy kapital</b>                  | <b>2 200 000</b>             |
| <b>II. Uzoq muddatli majburiyatlar</b>       |                              |
| Bank kreditlari                              | 450 000                      |
| <b>Jami uzoq muddatli majburiyatlar</b>      | <b>450 000</b>               |
| <b>III. Joriy majburiyatlar</b>              |                              |
| Qisqa muddatli kreditlar                     | 250 000                      |
| Kreditorlik qarzlari                         | 380 000                      |
| Soliq majburiyatlari                         | 120 000                      |
| <b>Jami joriy majburiyatlar</b>              | <b>750 000</b>               |
| <b>JAMI MAJBURIYATLAR</b>                    | <b>1 200 000</b>             |
| <b>JAMI XUSUSIY KAPITAL VA MAJBURIYATLAR</b> | <b>3 400 000<sup>1</sup></b> |

"Avto porloq kelajak 2020" XKning 2025-yil 31-dekabr holatiga tuzilgan balans ma'lumotlariga ko'ra, korxonaning jami aktivlari 3 400 000 ming so'mni tashkil etgan. Mazkur mablag'larning 2 005 000 ming so'mi uzoq muddatli aktivlarga, 1 395 000 ming so'mi esa joriy aktivlarga to'g'ri keladi.

1 **Manba:** "Avto porloq kelajak 2020" XKning 2025-yil 31-dekabr holatiga moliyaviy holat to'g'risidagi hisoboti (ming so'mda) dan olingan



Aktivlarning tarkibini o'rganish natijasida uzoq muddatli aktivlarning ulushi yuqori ekanligi kuzatiladi.

Uzoq muddatli aktivlar ulushi:

$$2\,005\,000 / 3\,400\,000 \times 100 = 58,97\%$$

Demak, korxona aktivlarining 58,97 foizi uzoq muddatli aktivlardan iborat.

Joriy aktivlar ulushi:

$$1\,395\,000 / 3\,400\,000 \times 100 = 41,03\%$$

Bu ko'rsatkich korxona faoliyatida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bazasining muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Asosiy vositalarning yuqori ulushi servis markazining bino-inshootlari, texnik uskunalari va diagnostika jihozlariga qilingan investitsiyalar bilan izohlanadi.

Joriy aktivlar tarkibida pul mablag'lari 560 000 ming so'mni tashkil etib, korxonaning kundalik faoliyatini moliyalashtirish imkoniyatlari yetarli ekanligini ko'rsatadi. Debitorlik qarzlarning 315 000 ming so'm miqdorda bo'lishi esa mijozlar bilan hisob-kitoblar muntazam amalga oshirilayotganligini bildiradi.

Korxonaning moliyalashtirish manbalari tarkibida xususiy kapitalning ulushi yuqori hisoblanadi.

Xususiy kapital ulushi:

$$2\,200\,000 / 3\,400\,000 \times 100 = 64,7\%$$

Bu natija korxona aktivlarining katta qismi o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilganligini ko'rsatadi. Amaliyotda ushbu ko'rsatkichning 50 foizdan yuqori bo'lishi moliyaviy mustaqillikning yaxshi darajasi sifatida baholanadi.

Majburiyatlar ulushi:

$$1\,200\,000 / 3\,400\,000 \times 100 = 35,3\%$$

Majburiyatlar ulushining nisbatan pastligi korxonaning qarz mablag'lariga ortiqcha bog'lanib qolmaganligini bildiradi.

Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti.

Korxonaning moliyaviy mustaqillik darajasini baholash uchun quyidagi koeffitsiyent hisoblandi:

$$Kmm = 2\,200\,000 / 3\,400\,000 = 0,65$$

Hisob-kitob natijasiga ko'ra, koeffitsiyent 0,65 ga teng bo'ldi. Ushbu natija korxonaning moliyaviy jihatdan mustaqil ekanligini va aktivlarning asosiy qismi xususiy kapital hisobidan shakllanganligini ko'rsatadi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti tahlili.

Korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarni qoplash imkoniyati quyidagi formula yordamida aniqlandi:

$$Kjl = 1\,395\,000 / 750\,000 = 1,86$$

Natijaga ko'ra, joriy likvidlik koeffitsiyenti 1,86 ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich korxonaning qisqa muddatli majburiyatlarini o'z joriy aktivlari hisobidan qoplash imkoniyati yetarli ekanligini bildiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"Avto porloq kelajak 2020" XKning 2025-yildagi balans ko'rsatkichlari korxonaning moliyaviy barqarorligi yuqori, to'lov qobiliyati yetarli va investitsiyaviy jozibadorligi yaxshi darajada ekanligini ko'rsatadi. Bu esa kelgusida korxona faoliyatini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish hamda xizmatlar hajmini oshirish uchun qulay moliyaviy asos mavjudligini anglatadi.

Korxonaning moliyaviy holatini to'liq baholashda balans ma'lumotlari bilan bir qatorda moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega. "Avto porloq kelajak 2020" XKning 2025-yil yakunlari bo'yicha sof foydasi 680 000 ming so'mni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich korxonaning hisobot davridagi moliyaviy faoliyati natijasida olingan yakuniy foydasini ifodalaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. **Buxgalteriya hisobi: darslik**. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 624 b.
2. Bakiyeva X., Rizayev N. **Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Masalalar to'plami**. – T.: TMI, 2007.
3. Warren C.S., Reeve J.M., Duchac J.E. **Accounting**. – Mason, OH: Cengage Learning, 2014.
4. Джамбакиева Г. **Финансовый учет: учебное пособие**. – T.: Iqtisod-Moliya, 2012.
5. Xolbekov R.O. **Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik**. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
6. Urazov K.B. **Buxgalteriya hisobi va audit**. – Toshkent, 2004.
7. Urazov K.B., Vaxidov S.V. **Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari: 5340900 – Buxgalteriya hisobi va audit ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik** / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. – T.: Adib, 2011. – 496 b.
8. Egamberdieva S.R. **Moliyaviy va boshqaruv hisobi: o'quv qo'llanma**. – T.: Fan va texnologiya, 2019. – 289 b.
9. Qurbanov Z., Misirov K. **Moliyaviy va boshqaruv hisobi: darslik**. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019. – 751 b.



## **IQTISODIYOT & TARAQQIYOT**

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### **6-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>